Yusubboeva Dinora Quadrat qizi	
Iqlim o'zgarishlari va rekreatsiya turizmining kelajagi: muammolar va yechimlar	870
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbos Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамаджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	

**Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li**

Magistr

Email: mehroj9402@gmail.com

ORCID: 0009-0009-3808-4493

DAVLAT ULUSHI MAVJUD BO'LGAN KORXONALARDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, operatsion xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va real vaqtli monitoringni amalga oshirish imkoniyati kengaymoqda. Tadqiqotda korxonalarda ERP, BI, Big Data va moliyaviy analitik platformalarni joriy etish orqali moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'sir o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston Prezidentining tegishli farmonlari asosida davlat korxonalarda raqamlashtirish va transformatsiyani chuqurlashtirish siyosati tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar, ekspert fikrlari va amaliyotdan olingan holatlar asosida raqamli yechimlarning samaradorligi baholanadi va ilg'or takliflar ishlab chiqildi. Maqola raqamli transformatsiya orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan tavsiyalarni beradi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, moliyaviy barqarorlik, davlat ulushi, ERP tizimlari, BI analitika, Big Data, moliyaviy tahlil, real vaqtli monitoring, transformatsiya siyosati, O'zbekiston iqtisodiyoti, davlat korxonalari, moliyaviy texnologiyalar, shaffoflik, hisob-kitob avtomatizatsiyasi, boshqaruv samaradorligi.

Abstract: This article analyzes the role and effectiveness of digital transformation in ensuring financial stability in state-owned enterprises in Uzbekistan. Today, the implementation of digital technologies enables companies to improve transparency, reduce operational costs, optimize financial flows, and conduct real-time monitoring. The study examines the impact of ERP, BI, Big Data, and financial analytics platforms on the financial stability indicators of enterprises. Additionally, the state policy of deepening digitalization and transformation in public enterprises, based on relevant Presidential decrees of Uzbekistan, is analyzed. Based on statistical data, expert opinions, and case studies, the efficiency of digital solutions is assessed and advanced recommendations are developed. The article provides scientifically grounded and practical proposals to strengthen financial stability through digital transformation.

Key words: digital transformation, financial stability, state ownership, ERP systems, BI analytics, Big Data, financial analysis, real-time monitoring, transformation policy, Uzbekistan economy, state enterprises, financial technologies, transparency, automated accounting, management efficiency.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и эффективность цифровой трансформации в обеспечении финансовой устойчивости предприятий с государственным участием в Узбекистане. Внедрение цифровых технологий сегодня позволяет повышать прозрачность деятельности, снижать операционные издержки, оптимизировать финансовые потоки и осуществлять мониторинг в режиме реального времени. В исследовании анализируется влияние внедрения ERP, BI, Big Data и финансово-аналитических платформ на показатели финансовой устойчивости предприятий. Также проводится анализ политики цифровизации и углубления трансформации в государственных компаниях на основе соответствующих указов Президента Республики Узбекистан. На основе статистических данных, мнений экспертов и практических кейсов оценивается эффективность цифровых решений и разрабатываются передовые рекомендации. Статья предлагает научно обоснованные и практические предложения по укреплению финансовой устойчивости через цифровую трансформацию.


Ключевые слова: цифровая трансформация, финансовая устойчивость, государственная доля, ERP-системы, BI-аналитика, Big Data, финансовый анализ, мониторинг в реальном времени, политика трансформации, экономика Узбекистана, государственные предприятия, финтех, прозрачность, автоматизация расчётов, эффективность управления.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarni raqamli transformatsiya qilish orqali ularning moliyaviy samaradorligini va barqarorligini oshirishga qaratilgan. Globallashuv sharoitida korxonalar oldida moliyaviy intizomni ta'minlash, real vaqtli qarorlar qabul qilish, moliyaviy oqimlarni boshqarish, shaffoflikni ta'minlash kabi dolzarb vazifalar turibdi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar, xususan ERP (Enterprise Resource Planning), BI (Business Intelligence), Big Data tahlil platformalari asosiy vosita sifatida maydonga chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 28-oktabrda qabul qilingan PF-6097-sonli Farmonda shunday deyilgan edi: "Davlat korxonalari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, moliyaviy va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish — ularning shaffofligi, hisobdorligi va moliyaviy barqarorligini oshirishning asosiy shartidir." Mazkur fikrlar davlat ishtirokidagi korxonalar oldida turgan yangi vazifalarni belgilab berdi. Xususan, moliyaviy ko'rsatkichlar tahlilining real vaqt rejimida amalga oshirilishi, harajatlarni optimallashtirish va investitsiyalarning samaradorligini nazorat qilish uchun raqamli transformatsiya vositalariga tayanish zaruriyati ortmoqda. O'zbekiston Respublikasida 2021-yildan boshlab "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida davlat sektori korxonalarida raqamlashtirishga doir muhim islohotlar boshlab yuborildi. Bu strategiyada davlat ulushi mavjud yirik korxonalarda moliyaviy nazoratni kuchaytirish, ularning faoliyatini avtomatlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga doir kompleks chora-tadbirlar belgilangan.

Shu nuqtayi nazardan, davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiya o'ziga xos strategik vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali korxonalarda quyidagi yo'nalishlarda sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilmogda (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy jarayonlarni takomillashtirish.

Afsuski, hozirda davlat korxonalarining hammasi ham zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan to'liq jihozlangan emas. Ayrimlarida hali ham qo'lda yuritiladigan yoki yarim avtomatlashtirilgan tizimlar mavjud bo'lib, bu ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, o'z vaqtida yetkazib berilmagan hisobotlar, noaniq byudjet rejasi, yoki noto'g'ri prognoz natijasida qarz yuklamasi ortib boradi, bu esa moliyaviy salomatlikka tahdid tug'diradi.

Shu sababli, davlat ishtirokidagi korxonalarda raqamli transformatsiya — bu nafaqat texnologik jarayon, balki moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun zarur bo'lgan institutsional islohotlarning ajralmas qismidir. U strategik rejalarni puxta tuzish, resurslardan samarali foydalanish, real vaqtli monitoring va mas'uliyatli boshqaruvni tashkil etishga imkon yaratadi.

Mazkur maqolada aynan shu yo'nalishda chuqur tahlillar olib borilib, moliyaviy barqarorlikning asosiy indikatorlari raqamli transformatsiya fonida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot asosida davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda joriy etilgan texnologiyalarning moliyaviy samaradorlikka ta'siri baholanadi, shuningdek, ilg'or xalqaro va mahalliy tajribalar asosida tavsiyalar ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiyaning davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar soni so'nggi yillarda sezilarli darajada



ortib bormoqda. Mahalliy olimlar ushbu jarayonni nafaqat texnologik yangilanish, balki moliyaviy boshqaruv, hisobdorlik va iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi asosiy omil sifatida baholaydilar.

Masalan, iqtisodchi olim S. Jo'rayev raqamli texnologiyalar joriy etilgan davlat korxonalarida moliyaviy tahlil va hisobotlarning aniqligi oshganini ta'kidlaydi: "Raqamli platformalarning joriy etilishi moliyaviy oqimlarning shaffofligini kuchaytiradi, bu esa moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi" [1]. G. Soliyeva esa raqamli yechimlar yordamida ishlab chiqarish samaradorligi oshgan korxonalarda moliyaviy foydalilik ko'rsatkichlari o'sib borayotganini yozadi: "ERP tizimi joriy qilingan tashkilotlarda aktivlar rentabelligi (ROA) 10-15% ga ortgan" [2]. R. Toshqulov o'z tadqiqotida raqamli boshqaruv tizimlarining moliyaviy nazoratdagi rolini tahlil qilib, shunday deydi: "Korxonada avtomatlashtirilgan byudjetlashtirish tizimi mavjud bo'lsa, bu xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytiradi" [3]. Z. Abdullayeva esa shunday fikr bildiradi: "Big Data asosidagi tahliliy tizimlar korxonalarda kredit risklarini aniqlash va prognozlashda yuqori natijalar bermoqda" [4]. M. Tursunova moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli vositalarning metodologik ahamiyatiga e'tibor qaratadi: "Raqamli transformatsiya moliyaviy tahlilni oldindan bashorat qilish, trendlarni aniqlash va o'z vaqtida qaror qabul qilishga xizmat qiladi" [5]. B. Usmonov korxonalarda BI tizimlarini joriy etish bo'yicha olib borgan tadqiqotida: "Business Intelligence platformalari foyda tahlilini vizual va statistik asosda ko'rsatib, boshqaruv qarorlarini optimallashtiradi" [6], deya qayd etadi. L. Egamberdiyev raqamlashtirishning tashkiliy va institutsional ta'sirini o'rganib, quyidagicha xulosa qiladi: "Raqamli transformatsiya nafaqat operatsion jarayonlarga, balki korxonaning tashkilot sifatidagi tuzilmasiga ham o'zgarish olib keladi" [7]. D. Masharipov esa quyidagicha fikr bildiradi: "Davlat korxonalarining elektron axborot bazalari moliyaviy tahlil va prognozlash imkoniyatlarini kengaytiradi" [8]. O. Raxmonqulova o'z tadqiqotida avtomatlashtirilgan auditning barqarorlikka ta'sirini tahlil qilib shunday deydi: "Avtomatlashtirilgan audit vositalari moliyaviy xatolarni kamaytiradi va ishonchlilikni oshiradi" [9]. H. Karimova esa ERP va CRM tizimlarining moliyaviy samaradorlikka qo'shgan hissasini quyidagicha ifodalaydi: "Integratsiyalashgan tizimlar hisob-kitoblarning tezligi va aniqligini oshiradi, bu moliyaviy barqarorlikning asosi hisoblanadi" [10]. T. Xolmirzayev esa shunday yozadi: "Raqamlashtirish strategiyasi bo'yicha alohida yo'l xaritalari ishlab chiqilmas ekan, moliyaviy transformatsiya sust kechadi" [11]. I. G'ulomov davlat sektori transformatsiyasida raqamli indikatorlar va moliyaviy tahlil o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib: "Barqarorlikni baholash indikatorlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish davlat sektorida muvaffaqiyat kalitidir" [12], deya fikr bildiradi. X. Ubaydullayev esa quyidagicha fikr bildiradi: "Moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishda axborot xavfsizligi va tizimlar barqarorligi asosiy omillardandir" [13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiya vositalarining o'rnini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi kompleks va tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, unda miqdoriy va sifat jihatidan baholash usullari qo'llanildi. Tadqiqot O'zbekiston sharoitida faoliyat yuritayotgan yirik davlat ishtirokidagi korxonalarda raqamli texnologiyalar joriy etilishi va uning moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlashni maqsad qilgan.

1. Tadqiqot obyekti va predmeti

Tadqiqot obyekti sifatida davlat ulushi 51 foizdan ortiq bo'lgan yirik korxonalar tanlab olindi. Xususan, "O'zbekenergo", "UzAuto Motors", "O'zbekiston Temir Yo'llari" va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJlar asosiy obyektlar sifatida tanlandi. Ushbu korxonalar transformatsiya jarayonlariga jalb etilgan, moliyaviy hisobotlari nisbatan ochiq va u yerda raqamli texnologiyalar (ERP, BI, avtomatlashtirilgan moliyaviy tahlil tizimlari) joriy etilgan.

Predmet esa — raqamli transformatsiyaning korxona moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash va tahlil qilishdan iborat.

2. Tadqiqot usullari

Tadqiqotda quyidagi uslublar birgalikda qo'llanildi:

Deskriptiv tahlil — korxonalarning raqamli texnologiyalar joriy etilganidan oldingi va keyingi moliyaviy ko'rsatkichlari o'rganildi;

Koeffitsiyentlar tahlili — moliyaviy barqarorlikni aniqlovchi asosiy indikatorlar (joriy likvidlilik, moliyaviy mustaqillik, DSCR, ROA, ROE, leverage) hisoblandi;

Tenglamali regressiya tahlili (OLS) — raqamli texnologiyalarning moliyaviy natijalarga bevosita va bilvosita ta'sirini aniqlash uchun foydalanildi;

SWOT-tahlil — raqamli transformatsiyaning kuchli va zaif tomonlarini baholash uchun;

Ekspert bahosi (Delphi usuli) — 10 nafar moliyaviy menejer va raqamli transformatsiya bo'yicha mutaxassislar ishtirokida sifat tahlili o'tkazildi.

3. Baholash mezonlari

Moliyaviy barqarorlikni baholashda quyidagi mezonlar asosiy ko'rsatkich sifatida tanlandi.



1-jadval. Moliyaviy barqarorlikni baholovchi yo'nalishlar va tegishli ko'rsatkichlar

Yo'nalish	Ko'rsatkich
Likvidlik	Joriy likvidlilik koeffitsiyenti
Moliyaviy mustaqillik	O'z mablag'lari ulushi (%)
Rentabellik	ROA, ROE
Qarz yuklamasi	Leverage (Majburiyat / Aktivlar)
Qarzni qoplash imkoniyati	DSCR (Debt Service Coverage Ratio)
Tashqi xavfga chidamlilik	Z-score (modifikatsiyalangan)

Bu ko'rsatkichlarning har biri korxonaning raqamli transformatsiya jarayoniga kirishgandan so'ng qanday o'zgarishga uchragani tahlil qilindi (1-jadval).

4. Ma'lumotlar manbai

Empirik ma'lumotlar 2020–2023-yillar oralig'ida korxonalarning ochiq moliyaviy hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlar bazasidan olingan. Bundan tashqari, raqamli tizimlar joriy etilgan vaqt va texnologiyalar turi to'g'risidagi ma'lumotlar bevosita intervyu va ekspert suhbatlari orqali yig'ildi.

5. Regressiya modelining tuzilishi

Korxona moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (y) ga raqamli transformatsiyaning mavjudligi (x_1), operatsion xarajatlar (x_2), investitsiyalar hajmi (x_3), aktivlar aylanishi (x_4), naqd pul oqimi (x_5) kabi o'zgaruvchilar kiritilib, quyidagi umumlashgan tenglama asosida regressiya modeli qurildi:

$$y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \beta_3 x_3 + \beta_4 x_4 + \beta_5 x_5 + \varepsilon$$

Bu yerda:

y – moliyaviy barqarorlik indeksi (kompozit ko'rsatkich);

x_1 – raqamli tizim mavjudligi (0 yoki 1);

x_2 – x_5 – moliyaviy va operatsion o'zgaruvchilar;

ε – tasodifiy xatolik.

Regressiya modelining ishonchliligi R^2 , F-test va p-value ko'rsatkichlari orqali baholandi. VIF (variance inflation factor) orqali multikollinearlik holatlari tekshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekistondagi 4 ta yirik davlat ishtirokidagi korxona misolida raqamli transformatsiyaning moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilindi. Quyidagi jadvallarda raqamli texnologiyalarni joriy etishdan oldingi va keyingi moliyaviy ko'rsatkichlar, texnologiyalar turi, hamda SWOT tahlil natijalari ko'rsatilgan.

2-jadval. Transformatsiya qilingan korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari (2023)

Korxona	Joriy likvidlilik	Moliyaviy mustaqillik (%)	DSCR	ROA (%)	ROE (%)
UzAuto Motors	1.35	36.4	1.6	5.3	12.1
O'zbekiston Temir Yo'llari	1.28	39.7	1.5	4.2	10.4
Hududiy elektr tarmoqlari	1.42	37.1	1.3	3.7	9.9
O'zbekenergo	1.31	38.8	1.4	4.5	11.3

2-jadvalda raqamli transformatsiya joriy etilgan korxonalarning 2023-yildagi moliyaviy ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Ko'rinib turibdiki, barcha korxonalarda joriy likvidlilik darajasi 1.28 dan 1.42 gacha bo'lib, bu ularning qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida qoplash salohiyatini ko'rsatadi. Ayniqsa, "Hududiy elektr tarmoqlari" da bu ko'rsatkich 1.42 bo'lib, bu korxonada operatsion naqd oqim barqarorligini bildiradi.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti ham barcha korxonalarda 36–39% oralig'ida bo'lib, bu qarz va o'z mablag'lar nisbati nisbatan muvozanatda ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa "Temir Yo'llari" AJ da 39.7% ko'rsatkich



qayd etilgan. Bu, raqamli nazorat va moliyaviy boshqaruv tizimlari joriy etilgach, o'z mablag'lar ulushi ortganligini anglatadi.

DSCR ko'rsatkichlari transformatsiya jarayonidan so'ng 1.3–1.6 oralig'iga yetgan bo'lib, bu korxonalar qarz xizmatini to'lashga yetarli naqd oqimga ega ekanligini ko'rsatadi. Transformatsiya ilgari 1.1 atrofida bo'lgan bu ko'rsatkichni 1.5 darajasiga olib chiqqan. Shuningdek, ROA va ROE darajalari ham sezilarli yaxshilangan.

3-jadval. Transformatsiyagacha va keyingi moliyaviy ko'rsatkichlar taqqoslamasi

Ko'rsatkich	Transformatsiyagacha	Transformatsiyadan so'ng
DSCR	1.1	1.5
Leverage	0.61	0.52
ROA (%)	3.2	4.7
Operatsion foyda	1 750 mlrd so'm	2 350 mlrd so'm
Naqd oqim	1 600 mlrd so'm	2 080 mlrd so'm
Sof foyda	1 050 mlrd so'm	1 440 mlrd so'm

3-jadvalda transformatsiyagacha va transformatsiyadan so'nggi moliyaviy ko'rsatkichlar o'zaro taqqoslangan. Raqamli tizimlar joriy etilgandan so'ng:

DSCR 1.1 dan 1.5 gacha ko'tarilgan;

Leverage 0.61 dan 0.52 gacha kamaygan (bu o'z mablag'lar ulushi ortganini bildiradi);

ROA 3.2% dan 4.7% gacha oshgan;

Operatsion foyda 1750 mlrd so'mdan 2350 mlrd so'mga ko'tarilgan;

Naqd oqim 1600 mlrd so'mdan 2080 mlrd so'mga yetgan.

Bu natijalar raqamli transformatsiyaning moliyaviy barqarorlikka bevosita ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

4-jadval. Raqamli texnologiyalar turi va joriy etilgan korxonalar

Texnologiya	UzAuto Motors	Temir Yo'llari	Hud. elektr tarmoqlari	O'zbekenergo
ERP	Bor	Bor	Bor	Bor
BI platforma	Bor	Yo'q	Bor	Bor
Big Data	Bor	Bor	Yo'q	Bor
CRM	Bor	Yo'q	Yo'q	Yo'q
Moliyaviy analitika	Bor	Bor	Bor	Bor
Avtomatlashtirilgan audit	Yo'q	Bor	Bor	Bor

4-jadvalda joriy etilgan texnologiyalar tahlil qilingan. "UzAuto Motors" to'liq ERP, BI, Big Data va CRM tizimlarini joriy etgan bo'lsa, "O'zbekiston Temir Yo'llari" esa moliyaviy analitika va avtomatlashtirilgan audit bilan mustahkamlangan. Ko'rinadiki, texnologik qamrov keng bo'lgan korxonalarda moliyaviy natijalar yanada ijobiy bo'lgan.

5-jadval. SWOT tahlil – raqamli transformatsiyaning moliyaviy barqarorlikka ta'siri.

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar	Imkoniyatlar	Xavf-xatarlar
Xarajatlarni kamaytirish	Texnik tayyorgarlik pastligi	Kapital samaradorligini oshirish	Kiberxavfsizlik muammolari
Real vaqtli monitoring	Xodimlar malakasining yetishmasligi	Sarmoya jalb qilish imkoniyati	Texnologik nosozliklar
Nazoratning kuchayishi	Byurokratik to'siqlar	Raqobatbardoshlikni oshirish	Qonunchilikdagi uzilishlar



5-jadvalda SWOT tahlil asosida raqamli transformatsiyaning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini ko'rsatadi. Kuchli tomonlar qatorida:

Xarajatlarni kamaytirish: avtomatlashtirilgan tizimlar inson resurslariga tayanishni kamaytirib, operatsion xarajatlarni qisqartiradi;

Real vaqtli monitoring: moliyaviy ko'rsatkichlar o'zgarishini kuzatish orqali tezkor boshqaruv qarorlari qabul qilinadi;

Nazoratning kuchayishi: BI tizimlari orqali har bir harajatni tahlil qilish va optimallashtirish imkoniyati yaratiladi.

Zaif tomonlar sifatida esa:

Texnik tayyorgarlik pastligi va xodimlar malakasining yetishmasligi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, byurokratik to'siqlar raqamlashtirish tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Imkoniyatlar sifatida:

Kapital samaradorligini oshirish, sarmoya jalb qilish, hamda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Biroq kiberxavfsizlik, texnologik nosozliklar, va qonunchilikdagi uzilishlar xavf-xatarlar sifatida aniqlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonining moliyaviy barqarorlikka ta'siri so'nggi yillarda amaliy va nazariy jihatdan dolzarb mavzuga aylangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ERP, BI platformalari, Big Data analitikasi va avtomatlashtirilgan audit kabi raqamli texnologiyalar korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash, operatsion xarajatlarni kamaytirish va qaror qabul qilish mexanizmlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Transformatsiyadan keyingi statistik ko'rsatkichlar DSCR, leverage va operatsion foyda kabi indikatorlarda ijobiy siljishlar yuz berganini isbotlamoqda. Ayniqsa, korxonalarda real vaqtli monitoring, shaffof moliyaviy hisobot yuritish va boshqaruvning raqamli asosda olib borilishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lmoqda. Biroq texnik bazaning sustligi, xodimlar malakasining yetishmasligi va kiberxavfsizlikka oid muammolar transformatsiya jarayonining sekinlashuviga olib kelmoqda. Shunga qaramay, mavjud imkoniyatlar – kapital samaradorligini oshirish, investorlar ishonchini kuchaytirish va ichki nazorat tizimini mustahkamlash orqali bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Shu bois, raqamli transformatsiya nafaqat texnologik yangilanish, balki davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik vosita sifatida qaralishi zarur. U moliyaviy xavflarni boshqarish, aktivlardan samarali foydalanish va hisobdorlikni kuchaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jo'rayev S. — "Davlat korxonalarida raqamlashtirish va moliyaviy tahlil". T.: Iqtisod-Moliya, 2021.
2. Soliyeva G. — "ERP tizimlarining rentabellikka ta'siri". Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2022.
3. Toshqulov R. — "Avtomatlashtirilgan byudjetlashtirish tizimlari". TDYUU ilmiy axborotlari, 2021.
4. Abdullayeva Z. — "Big Data texnologiyalari asosida risklarni baholash". IQTISOD, 2023.
5. Tursunova M. — "Transformatsion moliyaviy tahlil uslublari". Iqtisodiyot nazariyasi, 2022.
6. Usmonov B. — "BI tizimlari va boshqaruv qarorlari". Moliyaviy islohotlar jurnali, 2020.
7. Egamberdiyev L. — "Korxona tuzilmasi va raqamli o'zgarishlar". Toshkent: IQTISOD, 2022.
8. Masharipov D. — "Elektron axborot bazalari imkoniyatlari". TDIU ilmiy to'plami, 2021.
9. Raxmonqulova O. — "Avtomatlashtirilgan audit amaliyoti". Hisobotlar sharhi, 2022.
10. Karimova H. — "ERP va CRM tizimlarining moliyaviy ta'siri". Texno-Moliya, 2021.
11. Xolmirzayev T. — "Raqamlashtirish strategiyalari". Davlat boshqaruvi, 2023.
12. G'ulomov I. — "Indikatorlar orqali moliyaviy transformatsiya". Iqtisodiy fikrlar, 2020.
13. Ubaydullayev X. — "Axborot xavfsizligi va moliyaviy barqarorlik". T.: Iqtisod, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>